ZAMONAVIY QO‘SHIQ MATNLARIDA SLENG QO‘LLANILISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdumannobova Zahroxon Sharibjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21904182

Annotatsiya: Maqolada musiqachilar va qo‘shiqchilarning sleng yaratish va uning jamiyat nutqiga kirib borishidagi roli tahlil qilinadi. Rok, jaz, rep va xip-xop janrlaridagi artistlar qo‘shiq matnlarida sleng va vulgarizmlardan keng foydalanadi. Misollar: “Vaudeville”, Elvis Presli, Eminem. Ushbu san’atkorlar orqali sleng yoshlar orasida ommalashadi va madaniy nutqqa kiradi.
Kalit so‘zlar: sleng, musiqiy san’at, qo‘shiqchi, reper, rok, jaz, rep, xip-xop, vulgarizm, yoshlar, madaniyat, Elvis Presli, Eminem, Vaudeville.

Annotation: The article analyzes the role of musicians and singers in creating and spreading slang. Artists in rock, jazz, rap, and hip-hop use slang and vulgarism in their lyrics. Examples: “Vaudeville”, Elvis Presley, Eminem. Through these artists, slang becomes popular among youth and enters cultural language.
Keywords: slang, musical art, singer, rapper, rock, jazz, rap, hip-hop, vulgarism, youth, culture, Elvis Presley, Eminem, Vaudeville.

Аннотация: В статье анализируется роль музыкантов и исполнителей в создании сленга и его проникновении в язык общества. Артисты в жанрах рок, джаз, рэп и хип-хоп широко используют сленг и вульгаризмы в текстах своих песен. Примеры: «Vaudeville», Элвис Пресли, Эминем. Благодаря этим артистам сленг становится популярным среди молодежи и проникает в культурный язык.
Ключевые слова: сленг, музыкальное искусство, певец, рэпер, рок, джаз, рэп, хип-хоп, вульгаризм, молодежь, культура, Элвис Пресли, Эминем, Vaudeville.

XXI asrga kelib, anglofon jamiyatlarida sleng shunchalik mashhurlikka erishdiki, kundalik muloqot jarayonini, uning ko‘p qirraliligini va tabiiy ifoda vositalarini slengsiz tasavvur qilish deyarli imkonsiz bo‘lib qoldi, va hozirgi kunda sleng erishgan ushbu maqomni faqat birgina omil bilan izohlash yetarli emas, aksincha, bu jarayonni bir qator siyosiy, madaniy, ijtimoiy va mafkuraviy omillar bilan bog‘lash maqsadga muvofiqdir; tarixiy kontekstni hisobga oladigan bo‘lsak, sleng termini dastlab Britaniyada paydo bo‘lgan va keyinchalik AQShga ko‘chib o‘tgan, u yerda asosan Afro-Amerikaliklar nutqida muhim o‘rin egallagan, va AQShda qora tanlilar rasman oq tanlilar bilan teng huquqli deb e’lon qilingandan so‘ng, ularning tili, leksikasi va madaniyati butun mamlakat bo‘ylab faol ravishda tarqala boshlagan, shu bilan birga yoshlar orasida slengning ommalashuvi tezlashgan, natijada, sleng jamiyatning barcha qatlamlarida – musiqa, adabiyot, san’at, ommaviy axborot vositalari, sport va boshqa turli sohalarda keng targ‘ib qilingan, kundalik nutq, madaniy ifodalar va ommaviy kommunikatsiya jarayonlarida mustahkam o‘rin egallagan, shu tarzda sleng nafaqat o‘ziga xos leksik birliklar majmuasi sifatida, balki ijtimoiy identitet, madaniy qadriyatlar va yoshlar orasidagi aloqalarni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida rivojlangan, va bugungi kunda u ingliz tili, xususan Amerika varianti nutqining ajralmas qismiga aylangan, yangi iboralar, metaforalar va ifodalar orqali jamiyat hayotida doimiy yangilanishlarni ta’minlab kelmoqda.

Aslida, XX asrgacha bo‘lgan davrda Buyuk Britaniyada sleng termini ancha ommalashib, o‘z ta’sir doirasini kengaytirib borgan bo‘lsa-da, u yerda boshqa tillarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan darajaga yetolmadi va asosan mahalliy yoki hududiy ijtimoiy guruhlar orasida faol ishlatilgan. Bizningcha, slengning butun dunyoga tarqalishiga XX asrga kelib dunyodagi geosiyosiy muvozanatning o‘zgarishi, kuchlarning qayta taqsimlanishi va ayniqsa AQShning jahon sahnasida yetakchi davlatga aylanishi eng muhim sabablar sirasiga kiradi, chunki bu davlat o‘z yetakchilik roli yo‘lida madaniyati, tili va siyosiy g‘oyalarini butun dunyoga faol tarzda targ‘ib qila boshladi. Shu jarayonda u nafaqat diplomatiya va siyosiy sohalarda, balki madaniy-ma’rifiy va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali ham o‘z ta’sirini kengaytirdi, bunda gollivud filmlari, jaz va rok kabi musiqa janrlari, milliy mass-media va boshqa madaniy mahsulotlar muhim rol o‘ynadi. Natijada, butun dunyoda, hatto Yevropaning o‘zida ham Amerika madaniyati va tiliga bo‘lgan qiziqish ortdi, va ingliz tilining Amerika varianti o‘rganishga, tadqiq etishga va uning ichidagi leksik birliklar, xususan slengni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu jarayon hozirgacha davom etib kelmoqda va boshqa madaniyat vakillari tomonidan faol tarzda olib borilmoqda; ayniqsa noadabiy leksik birliklar, sleng va norasmiy ifodalar bu izlanishlarning markazida turadi. XXI asrning ikkinchi o‘n yilligiga kelib, jamiyatning deyarli barcha sohalarida sleng kirib borgan va undan foydalanmaydigan sohalar soni barmoq bilan sanarlidir. Hatto ilgari faqat rasmiy tildan foydalanilgan siyosat, iqtisod va boshqa yo‘nalishlarda ham bugungi kunda ba’zan qo‘pol, yumoristik xarakterga ega bo‘lgan sleng birliklari keng qo‘llanilmoqda. Buning asosiy sabablaridan yana biri sifatida Yevropa va AQSh tomonidan ilgari surilgan hamda butun dunyoda qo‘llab-quvvatlanayotgan “so‘z erkinligi” g‘oyasining barcha jamiyatlar hayotiga kirib borayotgani bilan izohlash mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan faktlar, shuningdek, global kommunikatsiya va axborot texnologiyalari rivojining ham slengning tarqalishida katta rol o‘ynashi, uning evolyutsion rivojlanishi, hozirgi kundagi egallagan o‘rni va erishgan muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgan eng muhim omillar sirasiga kiradi.

Yangi sleng xosil qilish va uning keng miqyosda tarqalishiga katta hissa qo‘shuvchi omillar sirasiga san’at sohasi vakillarini ham kiritish lozim, chunki ular jamiyatning turli qatlamlarida moda, uslub va nutq madaniyatini belgilovchi eng muhim ijtimoiy guruh sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ular orasidan qo‘shiqchilarni alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir, chunki aynan ushbu shaxslar ma’lum bir davr uchun kiyinish, tashqi ko‘rinish, hayot tarzi va hatto nutq madaniyatida modani shakllantiruvchi eng muhim insonlar hisoblanadilar. Shu sababli, ko‘p sonli tinglovchilar, xususan yoshlar, ularning harakatlari, nutqi va ifodalaridan o‘rnak olishga intiladi, ularni taqlid qiladi va kundalik muloqotida ularning tiliga xos iboralarni qo‘llashga harakat qiladi, bu esa slengning jamiyatda tez tarqalishi va ommalashishiga bevosita sabab bo‘ladi.

Zamonaviy estradada shunday yo‘nalishlar mavjudki, ular o‘z tinglovchilari auditoriyasining kattaligi va madaniy ta’siri bilan boshqa musiqa turlaridan aniq ajralib turadi. Bular sirasiga jaz, rok-n-roll, rep, pop va so‘nggi yillarda eng ommabop yo‘nalishga aylangan xip-xop kabi musiqiy janrlarni kiritish mumkin. Bu yo‘nalishlarda ijod qiluvchi xonandalar qo‘shiq matnlari orasida bir qator sleng va vulgarizmlarni keng qo‘llashlari bilan ajralib turadilar, shuningdek, ularning qo‘shiq matnlari, sahnadagi obrazlari va ijro uslubi orqali tinglovchilarga ijtimoiy identitet va madaniy xatti-harakatlarni singdiradi. Masalan, mashhur “Vaudeville” jaz guruhi tomonidan 1920 yilda komedik janrda ijro etilgan “Mr. Gallagher and Mr. Shean” qo‘shig‘i o‘z davrida shu qadar mashhurlikka erishdiki, qo‘shiq matnidagi “Absolutely, Mr. Gallagher. Positively, Mr. Shean” iborasi ikki insonning bir-biriga rozilik bildirganini ifodalash uchun hazil tariqasida ishlatilgan va bu ibora hozirgacha sleng sifatida saqlanib kelmoqda:

“Mr. Gallagher and Mr. Shean” qo‘shig‘i: [1]

Verse 1.
Shean: Oh! Mister Gallagher!
Oh! Mister Gallagher!
Gallagher: Hello, what’s on your mind this morning, Mister Shean?
Shean: Everybody’s making fun
Of the way our country’s run
All the paper say we’ll soon live European.
Gallagher: Why Mister Shean, why Mister Shean?
On the day they took away our old canteen,
Cost of living went so high
That it’ cheaper now to die.
Shean: Positively, Mister Gallagher.
Gallagher: Absolutely, Mister Shean.

Bundan tashqari, “Sleng otasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan xonanda Elvis Presli o‘z qo‘shiqlarida slengdan juda ham ko‘p foydalangan. Shu sababli, uning qo‘shiqlari o‘zgacha rang-baranglik kasb etib, tinglovchilar qalbidan chuqur joy egallagan hamda uning har bir ijod mahsuli unga katta mashhurlik olib kelgan. Shuning uchun ham uning “Rok qiroli” deb atalishi bejiz emas.

Elvis Presli o‘zining qo‘shiqlarida vaqti-vaqti bilan sleng birliklaridan foydalanishni afzal ko‘radi. Aynan mana shu xuxusiyat xonandaning qo‘shiqlarini tinglovchilar orasida sevib tinglanishiga sabab bo‘ladi. Chunki, oddiy xalq tili hisoblangan sleng birligi qatnashgan qo‘shiq matni har qanday tinglovchiga an’anaviy falsafiy va zerikarli qo‘shiq matniga nisbatan qiziqroq va his qilish osonroq hisoblanadi. Masalan, E.Presley tomonidan kuylangan “All shook up” qo‘shig‘i matnidagi “I’m all shook up” iborasi ayni shu maqsadga xizmat qiladi:

All shook up qo‘shig‘i (by Elvis Presley): [2]

Verse 1.
Uh, well, a-bless my soul,
What’s wrong with me?
I’m itching like a man on a fuzzy tree,
My friends say I’m actin’ wild as a bug.
I’m in love,
I’m all shook up.
Mm ooh, yeah, yeah …

Shuningdek, xonanda tomonidan ijro etilgan “Jailhose Rock” qo‘shig‘i matnida ham bir qator qiziq va o‘ziga xos sleng birliklari ishlatilgan:

Jailhose Rock qo‘shig‘i (by Elvis Presley): [3]

… Verse 3.
Number forty-seven said to number three
“You the cutest jailbird I ever did see
I sure would be delighted with your company
Come on and do the Jailhouse Rock with me”.

Qo‘shiqlarida slengdan keng foydalanuvchi xonandalar haqida gap ketar ekan, rep yo‘nalishida ijod qiluvchi qo‘shiqchilarni alohida ajratib ko‘rsatmaslikning iloji yo‘q, chunki ushbu janr o‘zining isyonkorligi, jumlalarning to‘xtalishsiz bir nafasda aytilishi, ironiya, peyorativ ohang va zamonaviy hayotning turli muammolarini bevosita ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi, natijada XXI asr yoshlarining eng sevimli va eng ko‘p tinglanadigan musiqa yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Reperlar ham rok-n-roll ijodkorlariga o‘xshab, qo‘shiq matnlarida sleng va vulgar birliklarni oshkora qo‘llashdan hech qachon tortinmaydilar, chunki bu ularning musiqiy tilini yanada jonli, tabiiy va tinglovchilar uchun qiziqarli qiladi, shuningdek, auditoriya bilan hissiy aloqani mustahkamlaydi. Bunday insonlar sirasiga butun dunyoda qo‘shiqlari sevib tinglanuvchi, bugungi kunda “Rep Qiroli” nomi bilan tanilgan AQShlik reper Eminem (asl ismi Marshall Bruce Mathers III) ni kiritish mumkin. U ham sleng va norasmiy iboralardan keng foydalanishi tufayli qo‘shiqlariga xilma-xillik, dinamizm va joziba bag‘ishlab, tinglovchilar e’tiborini jalb qilishda katta muvaffaqiyatga erishdi, natijada u jahondagi eng ko‘p tinglanuvchi qo‘shiqchilardan biriga aylandi. Masalan, reper tomonidan ijro etilgan “Godzilla” qo‘shig‘i matnida bir qator sleng birliklari ishlatilgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi tinglovchilar tomonidan qo‘shiqning mashhur bo‘lishiga va uning yoshlar orasida tez ommalashishiga sabab bo‘lgan omillardan sanaladi:

Godzilla qo‘shig‘i (by Eminem): [4]

[Intro]
Ugh, you’re monster.
VERSE 1.
I can swallow a bottle of alcohol
And I feel like Godzilla
Better hit the deck like the card dealer
My whole squads in here, walking around the party
A cross between a zombie apocalypse and B-bobby

Yuqorida keltirilgan misollar, musiqa sohasi, xususan, rok, jaz, rep va xip-xop yo‘nalishlarini sleng xosil bo‘lishi va uning keng miqyosda jamiyat nutqiga kirib borishi uchun eng sermahsul yo‘nalishlardan biri sifatida baholash imkonini beradi; ayni paytda ushbu janrlar ijodkorlari – qo‘shiqchilar va reperlar – slengning rivojlanishi va uning auditoriya orasida ommalashishida eng katta xizmat qiluvchi toifa vakillari sifatida namoyon bo‘lishadi, chunki ular qo‘shiq matnlari, sahnadagi obrazlari, ifoda vositalari va nutq madaniyati orqali yangi leksik birliklarni yaratish, ularni tinglovchilar orasida targ‘ib qilish va madaniy jihatdan mustahkamlashda bevosita rol o‘ynaydilar, shuningdek, yoshlar va keng auditoriya uchun madaniy identitet, ifoda erkinligi va nutqdagi kreativlikni namoyish etuvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladilar; shu sababli, musiqa sohasidagi ijodkorlar slengning jamiyat nutqiga kirib borishi va uning keng tarqalishida eng muhim va faol rolni bajaruvchi sub’ektlar sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.musicals101.com/lygallagher.htm (Murojaat sanasi: 12.10.2020, 9:38).
2. https://www.genius.com/Elvis-presley-all-shook-up-lyrics (Murojaat sanasi: 12.10.2020, 10:10).
3. https://www.genius.com/Elvis-presley-jailhouse-rock-lyrics (Murojaat sanasi: 12.10.2020, 10:17).
4. https://www.genius.com/Eminem-godzilla-lyrics (Murojaat sanasi: 02.11.2020, 21:12).